



ARNEBIA GUTTATA PALL. - DORIVOR VA BIOLOGIK FAOL

O‘SIMLIK

**ARNEBIA GUTTATA PALL. - ЛЕКАРСТВЕННОЕ И БИОЛОГИЧЕСКИ
АКТИВНОЕ РАСТЕНИЕ**

**ARNEBIA GUTTATA PALL. - A MEDICINAL AND BIOLOGICALLY
ACTIVE PLANT**

Musojonova Muslima Ilhomjon qizi

yo‘nalishi 1- bosqich talabasi

Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada *Arnebia guttata* Pall. o‘simligining morfologiyasi, tarqalishi, dorivor xususiyatlari va xalq tabobatidagi qo‘llanilishi haqida qisqacha ma‘lumot berilgan. O‘simlikning bioaktiv moddalari va farmakologik xususiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Arnebia guttata* Pall., dorivor o‘simlik, ildiz, bioaktiv modda, quruq klimat, pigment, antiseptik, yallig‘lanish, ta’sir, o‘simlik morfologiyasi, tog‘ floras, xalq tabobati, tibbiyot, foydalanish.

Аннотация

В статье кратко описаны морфология, распространение, лекарственные свойства и народное применение растения *Arnebia guttata* Pall., Освещены биоактивные вещества и фармакологический потенциал растения.

Ключевые слова: *Arnebia guttata* Pall., лекарственное растение, корень, биоактивные вещества, сухой климат, пигмент, антисептик, воспаление, действие, морфология растения, горная флора, народная медицина, фармакология, применение.



Abstrakt

This article briefly describes the morphology, distribution, medicinal properties, and traditional uses of *Arnebia guttata* Pall., The plant's bioactive compounds and pharmacological potential are highlighted.

Keywords: *Arnebia guttata*, medicinal plant, root, shikonin, bioactive compound, dry region, pigment, antiseptic, inflammation, effect, plant morphology, mountain flora, folk medicine, pharmacology, usage

KIRISH

O'zbekistonning quruq va tog'li hududlarida uchraydigan *Arnebia guttata* Pall. o'simligi qadimdan xalq tabobatida ishlatib kelingan noyob dorivor turlardan biridir. Bu o'simlik o'zining yorqin pigmentli ildizlari, shifobaxsh xususiyatlari hamda biologik faol moddalarga boyligi bilan e'tiborni tortadi. Ushbu maqolada uning asosiy morfologik belgilari, tarqalish areali va dorivor salohiyati ilmiy jihatdan ko'rib chiqiladi.

BOTANIK TAVSIF

Arnebia guttata Pall. - cho'ponbargdoshlar (*Boraginaceae*) oilasiga mansub, bir yillik dorivor o'simlik. Poyasi tik, novdalanuvchi, 10-40 sm balandlikka ega va tuklar bilan qoplangan. Barglari cho'zinchoq, butun qirrali, navbatma-navbat joylashgan. Gullari sariq rangda bo'lib, markaziy qismida to'q binafsha dog'lar mavjud. Gullar zanjirsimon to'pgullarda joylashadi va asosan yoz oylarida ochiladi. Mevasi - to'rt bo'lakli yong'oqcha, har bir bo'lagi silliq yoki ozgina g'adir-budur yuzaga ega. O'simlik asosan quruq, toshloq adirlar, qumli va tog' etaklarida o'sadi. Qattiq iqlim sharoitlariga yaxshi moslashgan bo'lib, qisqa vegetatsiya davrida o'z rivojlanishini yakunlaydi. Gul tojidagi dog'lar uni boshqa turlardan ajratib turadigan muhim morfologik belgi hisoblanadi(1-rasm).



1- rasm. O‘simlikning umumiy ko‘rinishi

ILMIY VA AMALIY JIHATLARI

Arnebia guttata Pall., nafaqat etnobotanika, balki farmakologiya va kosmetologiyada ham alohida o‘rin egallaydi. Uning ildizlaridan olinadigan tabiiy pigmentlar - ayniqsa shikonin moddalari — mikroblarga qarshi va yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega bo‘lib, dorivor surtmalar tarkibida qo‘llaniladi. O‘simlikning bioaktiv komponentlari yaralarni tez bitkazadi, regeneratsiya jarayonini faollashtiradi. Shu sababli, u xalq tabobatidan tortib zamonaviy farmatsevtika sanoatigacha bo‘lgan keng sohalarda ishlatiladi.

KIMYOVIY TARKIBI

Arnebia guttata ildizida asosan shikonin va uning hosilalari (naphthoquinonlar) aniqlangan bo‘lib, ular o‘simlikka xos pigmentni ta’minlaydi. Shuningdek, o‘simlikda flavonoidlar, taninlar, oz miqdorda efir moylari va antioksidant birikmalar mavjud. Ushbu kimyoviy moddalarning kombinatsiyasi o‘simlikni antiseptik, yara bitkazuvchi va yallig‘lanishga qarshi xususiyatga ega qiladi. Shikonin, ayniqsa, teri kasalliklariga qarshi vositalar tarkibida faol komponent sifatida ishlatiladi.

RESURS HOLATI VA MUHOFAZA ZARURIYATI



Arnebia guttata Pall. ayrim tog‘li hududlarda tabiiy resurs sifatida kamayib bormoqda. Ko‘p yillik o‘simlik bo‘lmasa-da, iqlim sharoitiga bog‘liq holda o‘sinh zonasi cheklangan. Yovvoyi holda yig‘ib olinishi uning populyatsiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli, o‘simlikning tabiiy resurslarini muhofaza qilish, urug‘dan ko‘paytirish texnologiyalarini joriy etish va dori sanoatida sun‘iy yetishtirish asosida ishlatish dolzarb sanaladi.

XULOSA

Arnebia guttata Pall. - dorivor xususiyatlarga ega bo‘lgan, O‘zbekiston tog‘ oldi hududlarida uchraydigan noyob o‘simlikdir. Uning tarkibidagi shikonin moddalari antiseptik va yallig‘lanishga qarshi ta‘sir ko‘rsatadi. Tabiiy resurs sifatida kamayib borayotgani sababli uni muhofaza qilish va sun‘iy yetishtirish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tojibaev K.Sh., Egamberdieva D.R., Abdurahmanov A.A. O‘zbekiston florasida o‘simliklarning morfologiyasi va tarqalishi. - Toshkent: Fan, 2010.
2. Turaev F.X. O‘zbekiston shifobaxsh o‘simliklari. - Toshkent: “Ibn Sino” nashriyoti, 2008.
3. Kadirov U.K., Mirzayeva G.N. Fitoterapiya va dorivor o‘simliklar. - Toshkent: “O‘qituvchi”, 2014.
4. Ovchinnikov P.N. (Red.) Flora of the USSR, Volume 20: Boraginaceae. - Moskva-Leningrad: Nauka, 1975.
5. Leung A.Y., Foster S. Encyclopedia of Common Natural Ingredients Used in Food, Drugs, and Cosmetics. - New York: John Wiley & Sons, 2003.